



Faxriddin JONIYEV,
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti, PhD
E-mail: fahriddinjoniyev@gmail.com

Alfraganus universiteti professori G.Masharipova taqrizi asosida

ZAMONAVIY AKSILOGIYA QONUNIYATLARINING ILMIY AMALIY SAMARADORLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada aksiologiya – qadriyatlar haqidagi falsafiy ta'limotning nazariy asoslari, uning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Aksiologiyaning ilmiy paradigmasi sifatida qadriyatlarining tasnifi, ularning shaxs rivojlanishiga va ijtimoiy jarayonlarga ta'siri yoritiladi. Maqolada so'nggi yillarda xalqaro ilmiy adabiyotlarda e'lon qilingan, Scopus bazasida indeksatsiya qilingan manbalar asosida aksiologik yondashuvlar tahlil qilinib, ularning amaliy qo'llanish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Shuningdek, aksiologiyaning ta'limdagi ahamiyati, uning o'quvchilar va talabalar shaxsiy hamda kasbiy rivojiga ta'siri bo'yicha nazariy va empirik dalillar keltiriladi. Tadqiqot natijalari aksiologik yondashuvning zamonaviy ta'lim tizimida insoniylik, ma'naviyat va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Aksiologiya, qadriyatlar nazariyasi, ta'lim falsafasi, etika, shaxs rivojlanishi, madaniyat, Hartman nazariyasi, aksiologik ong, aksiologik dunyoqarash, aksiologik baholash.

SCIENTIFIC AND PRACTICAL EFFECTIVENESS OF MODERN AXIOLOGICAL LAWS

Annotation

This article analyzes the theoretical foundations of axiology - the philosophical doctrine of values, its role and significance in the modern educational process. As a scientific paradigm of axiology, the classification of values, their impact on personal development and social processes are highlighted. The article analyzes axiological approaches based on sources published in international scientific literature in recent years, indexed in the Scopus database, and discusses the possibilities of their practical application. Also, theoretical and empirical evidence is presented on the importance of axiology in education, its impact on the personal and professional development of students. The results of the study confirm that the axiological approach is an important factor in the development of humane, spiritual and cultural competencies in the modern educational system.

Key words: Axiology, value theory, philosophy of education, ethics, personal development, culture, Hartman's theory, axiological consciousness, axiological worldview, axiological evaluation.

НАУЧНАЯ И ПРАКТИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОВРЕМЕННЫХ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ ЗАКОНОВ

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические основы аксиологии – философского учения о ценностях, её роль и значение в современном образовательном процессе. В качестве научной парадигмы аксиологии выделяется классификация ценностей, их влияние на развитие личности и социальные процессы. В статье анализируются аксиологические подходы на основе источников, опубликованных в международной научной литературе последних лет, индексируемых в базе данных Scopus, и рассматриваются возможности их практического применения. Также представлены теоретические и эмпирические данные, подтверждающие важность аксиологии в образовании, её влияние на личностное и профессиональное развитие обучающихся. Результаты исследования подтверждают, что аксиологический подход является важным фактором развития гуманистических, духовных и культурных компетенций в современной образовательной системе.

Ключевые слова: Аксиология, теория ценностей, философия образования, этика, развитие личности, культура, теория Хартмана, аксиологическое сознание, аксиологическое мировоззрение, аксиологическая оценка.

Kirish. Insoniyat yaralibdiki, odamlar o'zlarining u yoki bu ehtiyojlarini qondirishgaxizmatqiluvchi, biror faoliyatlarida foydali bo'lishi mumkin bo'lgan, muayyan qiymatga ega bo'lgan narsalarni qadrlab kelishgan. Shu bilan ularning qadriyatiy xususiyatlari ochila borgan.

Dastlabbuyumlarning amaliy foydasi bilan bog'langan bu tushuncha keyinchalik boshqa ijtimoiyvama'naviy hodisalarda ham tan oлина boshlandi. Qadriyatlarining bugungi hayotda tutgan o'rni va kelajakda kasb etadigan ahamiyatini teranroq anglamoq uchun uning tarixiga nazar tashlash kifoya. Garchi qadriyatlar bilan shug'ullanadigan mustaqil falsafiy soha – aksiologiya G'arbda yaqin o'tmishda shakllangan bo'lsa-da, insoniyatga xos qadrlash tamoyillarining qaror topishi, qadriyatlar mavzusining tarixiy ildizlari uzoq o'tmishga ega. Bu borada G'arb va Sharq falsafasio'z

tarixiga ega bo'lib, G'arb olimlari, asosan, Yevropa madaniy merosi va g'oyalariga tayanganholda Suqrot, Aflotun, Arastu kabi ko'plab allomalarning nomlarini tilga oladilar. Bu mavzu Sharq, xususan, O'zbekiston uchun ham uzoq o'tmishdan bugunga qadar muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqlar, rivoyat-u afsonalar, dostonlarga, bir so'z bilan aytganda, xalqog'zakijjodi namunalari borib taqaladi. Forobiy, Imom Buxoriy, Termiziy, Beruniy, Abu Ali ibnSino, Najmiddin Kubro, Yassaviy, Naqshband, Ulug'bek, Sharof, Bedil kabi mutafakkirlar ijodidahamSharqqa xos azaliy qadriyatlarining izlarini, uzluksiz zanjirini ko'rishimiz mumkin. Spitamen, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi haqida yaratilgan asarlarda vatanparvarlik, yurt ozodligi

uchunfidoyilik kabi ko'plab umumin soniy qadriyatlar aks etgan.

Aksiologiya — qadriyatlar haqidagi falsafiy ta'limot bo'lib, inson faoliyati, tafakkuri va ijtimoiy hayotidagi qiymat kategoriyalarini o'rganadi. XIX asr oxiri va XX asr boshida mustaqil falsafiy yo'nalish sifatida shakllangan aksiologiya bugungi kunda nafaqat falsafa, balki pedagogika, sotsiologiya, psixologiya va boshqaruv sohalarida ham asosiy metodologik tamoyillardan biri sifatida qaralmoqda [1]. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, qadriyatlar tizimi insonning ijtimoiy xulq-atvori, qaror qabul qilish jarayoni va madaniy moslashuvchanligining markaziy determinantidir [2].

Zamonaviy ilmiy manbalarda aksiologiya nafaqat nazariy konsepsiya sifatida, balki amaliy jihatdan ham keng tadbiiq qilinmoqda. Masalan, Biedenbach va Jacobsson[3] o'z tadqiqotida loyihalarni boshqarish sohasida qadriyatlar va aksiologik yondashuvlar muvaffaqiyatli strategiyalarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Shuningdek [5] Scopus bazasidagi so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'limdagi aksiologik yondashuv talabalarda tanqidiy fikrlash, tolerantlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga yordam beradi.

Ushbu maqola aksiologiyaning nazariy asoslari, zamonaviy ta'limdagi o'rni va amaliy qo'llanish imkoniyatlarini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Maqsad — Scopus bazasidagi yetakchi ilmiy tadqiqotlar asosida aksiologik yondashuvning afzalliklari va istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash hamda ta'lim jarayonida uning samarali integratsiyasiga oid tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili. Aksiologik dunyoqarash - ijtimoiy dunyoqarashning o'ziga xos tarkibiy tuzilmasidan biri sifatida, kishilarning voqelikka qadriyatli munosabati va faoliyatining Yo'nalishini belgilaydigan aksiologik qarashlar, prinsip va maslaklar majmuasi. Dunyoqarashning aksiologik shakli qadriyatli yondashuv, aksiologik munosabat, aksiologik baholash kabilami o'z ichiga oladi.

Aksiologiya zamonaviy falsafaning mustaqil yo'nalishi sifatida qadriyatlar tabiati, ularning tasnifi, shakllanish mexanizmlari va inson hayotidagi funksional rolini o'rganadi. Tarixan bu tushuncha XIX asr oxirida nemis faylasuflari R. Lotze va V. Vindelband tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lsa-da, XX asrda Robert S. Hartman tomonidan "formal aksiologiya" sifatida ilmiy asoslar bilan boyitildi [7]. Hartman qadriyatlarini uch asosiy kategoriya – sistematik, tashkiliyvaichki (intrinsic) qadriyatlar sifatida tasniflab, ularning o'zaro aloqadorlik mexanizmini matematik model asosida izohladi.

Aksiologiyaning nazariy paradigmalari. Nazariy yondashuvlar turlicha bo'lsa-da, aksariyat olimlar aksiologiyani ikki asosiy paradigmalarda namoyon qilishadi: deskriptiv aksiologiya – qadriyatlar tizimini tasvirlash va tahlil qilishga qaratilgan; normativ aksiologiya esa qadriyatlar ierarxiyasini belgilash va baholash mezonlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan [8,9] tomonidan ishlab chiqilgan asosiy qadriyatlar nazariyasi[10] zamonaviy psixologiya va sotsiologiyada eng ko'p qo'llaniladigan modellardan biri bo'lib, u o'n toifa universal qadriyatlarini (masalan, erkinlik, an'ana, xavfsizlik, universallik) ajratadi.

Tilson va hammualliflar [11] o'z tadqiqotlarida aksiologik paradigmaning zamonaviy ta'limga moslashish jarayonini globalizatsiya va raqamli kommunikatsiya sharoitida ko'rib chiqdilar. Ularning xulosasiga ko'ra, [12] ta'lim jarayonida aksiologiyaning roli faqat axloqiy me'yorlarni shakllantirish bilan cheklanmay, balki ijtimoiy hamkorlik va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tahlil va muhokama. Pedagogik aksiologiya inson va ta'limni qadriyat deb e'tirof etgan holda, ta'limiy qadriyatlarini

muhokama etuvchi hamda ta'limga aksiologik yondashuvni amalga oshiruvchi pedagogik bilimlar sohasi sifatida maydonga chiqmoqda. Pedagogik aksiologiyaning o'rganish muammosini o'quvchi shaxsining aksiologik ongi, aksiologik munosabati, aksiologik xulq-atvorini shakllantirish tashkil etadi:

- qadriyatlar nazariyasi nuqtai nazaridan pedagogika nazariyasi va ta'lim amaliyotining tarixiy rivojini tahlil etish;

- uning aksiologik yo'nalganligini aks ettiruvchi ta'limning aksiologik asoslarini aniqlash;

- milliy ta'lim mazmuni va rivojlanish strategiyasini aniqlashga doir aksiologik yondashuvni ishlab chiqish.

Ta'lim jarayonida aksiologik yondashuv shaxsning kognitiv, affektiv va ijtimoiy kompetensiyalarini bir butun sifatida rivojlantirishga qaratilgan [14]. Mokhtar va Halim [15] olib borgan empirik tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, o'quv dasturlariga aksiologik komponentlarni kiritish talabalar orasida tanqidiy fikrlash, tolerantlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi ko'nikmalarni sezilarli darajada kuchaytirgan.

Muhokama qilinayotgan adabiyotlar shuni anglatadiki, zamonaviy sharoitda aksiologiya uchta asosiy vazifani bajaradi:

Normativ asos — qadriyatlar tizimini belgilash orqali ijtimoiy va shaxsiy qarorlar uchun etik mezon yaratish.

Deskriptiv funksiyasi — mavjud qadriyatlarini tasvirlash va ularning ijtimoiy dinamikasini tushuntirish.

Instrumental rol — qadriyatlar orqali ijtimoiy institutlar samaradorligini oshirish.

Biroq, mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ham ko'rsatadiki, aksiologik yondashuvni amaliyotga tatbiq etishda bir qator muammolar mavjud. Ulardan biri — qadriyatlarini universal tarzda belgilashdagi madaniy farqlar. Masalan, Lähdesmäki et al. ko'rsatganidek, bir madaniyatda ustuvor hisoblangan qadriyat boshqasida ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bu esa ta'lim va boshqaruvda aksiologik yondashuvni joriy etishda moslashuvchan strategiyalarni talab qiladi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, aksiologik yondashuvning samarali qo'llanishi uch asosiy shartni talab etadi:

Qadriyatlar tizimini aniq va ilmiy asosda belgilash;

Mahalliy va global kontekstni hisobga olgan holda moslashtirish;

Qadriyatlarini nazariy tushunchadan amaliy faoliyat me'yorlariga aylantirish.

Tahlil va natijalar. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aksiologiya – qadriyatlar haqidagi falsafiy ta'limot – zamonaviy jamiyat taraqqiyotida, ayniqsa, ta'lim va tarbiya jarayonida markaziy metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Qadriyatlar tizimi shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini, ijtimoiy moslashuvini va madaniy identifikatsiyasini belgilovchi muhim omildir. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, ta'lim jarayonida aksiologik yondashuvni qo'llash nafaqat bilimlarni samarali o'zlashtirishga, balki talabalarda tanqidiy tafakkur, empatiya va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga imkon beradi [16].

Shuningdek, qadriyatlar tizimining globalizatsiya sharoitida o'zgarishi, turli madaniyatlararo muloqot jarayonida universal qadriyatlar bilan milliy qadriyatlarining uyg'unlashishi kuzatilmoqda. Bu holat aksiologik moslashuv jarayonining ahamiyatini yanada oshiradi Ayni paytda, milliy qadriyatlarining yo'qolib ketishi xavfi ham mavjud bo'lib, bu ta'lim tizimida madaniy merosni asrab-avaylashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishni talab etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, aksiologik yondashuvni amaliyotga tatbiq etish:

Shaxsning har tomonlarga rivojlanishiga, intellektual va ma'naviy uyg'unligiga xizmat qiladi.

Jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun mustahkam axloqiy va madaniy poydevor yaratadi.

Globalashuv davrida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash imkonini beradi.

Aksiologik yondashuvning pedagogik samaradorligi aniqlandi — bu yondashuv talabalarda shaxsiy va kasbiy salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi, mustaqil tafakkur va ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi.

Qadriyatlar barqaror, lekin o'zgartirilishi mumkin. Psixologik aralashuvlar yoki pedagogik ta'sirlar orqali qadriyatlar o'zgartirilishiga erishish mumkin, bu esa aksial tarbiya tizimini mustahkamlaydi.

Madaniyat va kontekstga moslashtirish muhim. Pedagogik amaliyotda aksiologiyani tatbiq etishda milliy qadriyatlar va talabaning madaniy konteksti inobatga olinishi lozim.

Insoniyatuchunmoddiy, ma'naviy-madaniy qiymatga ega tushunchalar uchun umumiy nom sifatida qabul qilingan qadriyat va uni ilmiy aspektida o'rganuvchi soha— aksiologiya so'zining tarixini bilish uning asl mohiyatini anglashga va muloqot jarayonida o'rinli qo'llashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, aksiologiya faqat nazariy konsepsiya emas, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqarish va yo'naltirishda samarali vosita sifatida o'z dolzarbligini namoyon etmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Hartman, R. S. (1967). *The Structure of Value: Foundations of Scientific Axiology*.
2. Rescher, N. (1969). *Introduction to Value Theory*.
3. Schwartz, S. H. (2012). *An Overview of the Schwartz Theory of Basic Values*. *Online Readings in Psychology and Culture*.
4. Biedenbach, T., & Jacobsson, M. (2016). *The Open Secret of Values: The Roles of Values and Axiology in Project Research*. *Project Management Journal*, 47(3), 89–102.
5. Skvortsova, T. (2020). *Value orientations in the educational process*. *European Journal of Contemporary Education*.
6. *Pedagogik-aksiologiya. Мардонов-III.pdf* 20-29 b.
7. Mokhtar, R., & Halim, N. (2020). *Axiological approach in higher education*. *International Journal of Learning, Teaching and Educational Research*.
8. Vasileva, N., & Rudenko, M. (2022). *The role of axiological education in modern pedagogy*. *Pedagogical Review*.
9. Zimmerman, M. J. (2015). *Value Theory*.
10. Fairclough, N. (2013). *Critical discourse analysis and value systems*.
11. Lähdesmäki, T., et al. (2019). *Comparative research on cultural values*.
12. Tomas, A., & Segal, E. (2019). *Values in healthcare decision-making*.
13. Lotze, R. H. (1885). *Mikrokosmos*.
14. Vindelband, W. (1911). *Einleitung in die Philosophie*.
15. Kupperman, J. J. (2010). *Value... and What Follows*.
16. Smith, M. (2021, June 15). *infed.org: Education, Community-Building and Change*. <https://www.infed.org>